

I. YALPI HUDUDY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 18 337,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-iyungacha nisbatan o'sish sur'ati 105,4 foizga teng bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hisssasi 3,2 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida YAHM deflyator indeksi 110,9 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari, foizda
2024- yil yanvar-iyun oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish sohasida -109,7 foiz (umumiy ulushning 7,0 foizi), jami xizmatlar - 105,4 foiz (umumiy ulushning 37,6 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 104,2 foiz (umumiy ulushning 37,2 foizi), sanoat – 107,0 foiz (umumiy ulushning 18,2 foizi)ni tashkil qildi.



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

YAHMning o'sishida tarmoqlarning qo'shgan hissasi

(jamiga nisbatan % da)










YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2023- yil yanvar-iyunda – 2,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yil yanvar-iyunda – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yil yanvar-iyunda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,0 f.p. (2023- yil yanvar-iyunda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHMdagi ulushi 0,08 f.p. (2023- yil yanvar-iyunda – 0,3 f.p.)ni tashkil qildi .



Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2023- yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	15 683,7	18 337,2	105,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 247,0	17 905,4	105,5
 mahsulotlarga sof soliqlar	436,7	431,8	102,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 247,0	17 905,4	105,5
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 989,8	6 663,4	104,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 658,8	4 501,6	107,8
 sanoat	2 593,4	3 250,6	107,0
 qurilish	1 065,4	1 251,0	109,7
Xizmatlar	5 598,4	6 740,4	105,4
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	872,1	1 024,8	109,0
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	861,8	1 120,4	112,2
 boshqa xizmat tarmoqlari	3 864,5	4 595,2	103,1

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir qurilish sohasida -109,7 foiz (umumiy ulushning 7,0 foizi), sanoat – 107,0 foiz (umumiy ulushning 18,2 foizi), jami xizmatlar - 105,4 foiz (umumiy ulushning 37,6 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 104,2 foiz (umumiy ulushning 37,2 foizi) ni tashkil qildi.


YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 66,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2023- yil yanvar-iyunda 66,8 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da
(jamiga nisbatan foizda)

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 37,2 foizni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-iyunga (39,3 foiz) nisbatan 2,1 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 25,2 foizni tashkil qilib, 2023 – yil yanvar-iyunga (24,0 foiz) nisbatan 1,2 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 37,6 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (36,7 foiz) nisbatan 0,9 punktga ko'pdir.



2023- yil



2024- yil

● **Yalpi qo'shilgan qiymat**
● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 66,6 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 66,8 %), hajmi 11 930,6 mlrd. so‘mni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 10 181,6 mlrd. so‘m) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o‘shishi bilan bog‘liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

10 181,6

66,8 %


2024- yil

11 930,6


66,6 %

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,2 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 foizga kamaygan.


Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 157,6 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 foiz oʻsishga erishildi.



Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)




2024- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 37,6 foiz (2023- yil yanvar-iyun oylarida 36,7 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 5,7 foizni (2023- yil yanvar-iyun oylarida 5,7 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,3 foizni (2023- yil yanvar-iyun oylarida 5,7 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 25,6 foizni (2023-yil yanvar-iyun oylarida 25,3 foiz) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-iyun)**

	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>yanvar-iyun 2023 - y.</i>	<i>yanvar-iyun 2024- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	567 364,3	106,4	18 337,2	105,4	3,3	3,2
Sanoat	369 961,7	107,8	11 952,9	107,0	3,3	3,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	170 297,3	103,8	11 259,7	104,3	6,5	6,6
Investitsiyalar	229 334,8	136,6	6 015,4	127,5	2,8	2,6
Qurilish ishlari	79 833,9	110,1	2 967,9	109,7	3,6	3,7
Chakana tovar aylanmasi	154 618,1	108,4	6 057,8	107,4	4,0	3,9
Xizmatlar, jami	268 083,6	112,9	7 318,0	116,1	2,7	2,7
Eksport (mln. AQSh doll.)	12 992,7	105,5	169,8	105,2	1,3	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	18 835,5	110,6	208,7	71,3	1,7	1,1

**Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining
Respublikadagi ulushi, %da**



Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining O'zbekiston Respublikasidagi ulushi quyidagichadir. Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi- 3,2 %, sanoatda ulushi- 3,2 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ulushi – 6,6 %, investitsiyada ulushi- 2,6 %, qurilish ishlarida ulushi- 3,7 %, chakana tovar aylanmasida ulushi- 3,9 %, xizmatlarda ulushi -2,7 %, eksportda ulushi – 1,3 %, importda ulushi- 1,1 %ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 18 337,2 mlrd. soʻmni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,2 foizni tashkil qilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11 952,9 mlrd. soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,2 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 107,0 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 11 259,7 mlrd. soʻmni (respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarining ulushi 6,6 foiz) tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 104,3 foizga etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 015,4 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 127,5 foizni (respublikadagi ulushi 2,6 foiz) tashkil etdi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida 2 967,9 mlrd. soʻmlik (respublikadagi ulushi 3,7 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 057,8 mlrd. soʻmni (respublikadagi ulushi 3,9 foiz), oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 107,4 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 7 318,0 mlrd. soʻmni, (respublikadagi ulushi 2,7 foizni) tashkil qildi va 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan oʻsish 116,1 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 378,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), oʻsish surʻati 83,4 foizni, jumladan: eksport – 169,8 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), oʻsish surʻati 105,2 foizni, import–208,7 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,1 foizni), oʻsish surʻati 71,3 foizni tashkil etdi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 37,2 % ni, sanoat tarmog‘i 18,2 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 37,6 % ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

